



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 24 yil “ 09, avgust

№ 263

Toshkent sh.

Tibbiyot mutaxassislarini Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan xorijda o'qitish, malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlash, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni respublikaga jalb qilishni tashkil etish choralari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 6-sentabrdagi PF-156-sod Farmoni hamda "Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 22-yanvardagi PQ-38-sod qaroriga muvofiq hududlarda tor sohadagi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining 200 nafar bitiruvchisini magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va markazlarida o'qitish hamda sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining xodimlarini xorijda malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlash, shuningdek o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarini jalb etish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

hududlarda tor soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va markazlarida o'qitish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini xorijda malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlashni tashkil etish tartibi 2-ilovaga muvofiq;

o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish bo'yicha xorijiy mutaxassislarni jalb etish tartibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi (O'.Ismailov):

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchisini klinik ordinatura dasturlari asosida o'qitish maqsadida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va markazlarining ro'yxatini **har yili 5-sentyabrga qadar** shakllantirsin va tasdiqlash uchun kirtsin;

xorijiy ilg'or tibbiyot markazlariga klinik ordinatura o'quv dasturlariga o'qishga qabul qilingan bitiruvchilarning o'qish xarajatlarini qoplab berish uchun zarurat asosida "El-yurt umidi" jamg'armasiga talabnama kirtsin.

3. Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva) har yili 1-avgustga qadar hududlardagi ehtiyojni o'rganib, tibbiyot mutaxassislarni Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan xorijda o'qitish, malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlash, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni respublikaga jalb qilish uchun tizimdagi ustuvor yo'nalichlarni aniqlasini va ro'yxatini tasdiqlasini.

4. Sog'liqni saqlash vazirning birinchi o'rinnbosari v.b. D.Sultanov har yili 10-avgustga qadar shakllantirilgan ehtiyoj asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va markazlarida o'qitish uchun yuboriladigan 200 nafar bitiruvchilar uchun 4 yillik kvotani tasdiqlash uchun kirtsin.

5. Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati (F.Sanaev), Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari rahbarlari hududlarda tor sohadagi mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va markazlarida o'qitish hamda davlat tibbiyot muassasalarining xodimlarini xorijda malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlashni tanlov asosida davlat budjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanishini muntazam targ'ibot qilsin.

Bunda, muassasaning rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalari, rasmiy veb-saytlari, ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish hamda ushbu jarayonlarga bloger va soha yetakchilari jalb etilishi ko'zda tutilsin.

6. Sog'liqni saqlash vazirining o'rinnbosari (O.Omonov), Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi (S.Sharipov) **2025 yildan** boshlab, "Tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga malaka toifasi berish bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish va ularga sertifikat berish" axborot tizimi tarkibida xorijga magistratura, klinik ordinatura, malaka oshirish (stajirovka o'tash), qayta tayyorlashga o'qishga borish maqsadidagi nomzodlar hujjalarni onlayn topshirish imkonini beruvchi bo'lim yaratish va uni amaliyatga joriy etish choralarini ko'rsin.

Mazkur bo'limning yaratilishi vazirlikning axborot texnologiyalari uchun ajratiladigan mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilab qo'yilsin.

7. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi **Ishchi organ** sifatida barcha jarayonlarni muvofiqlashtirsin.

8. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi (S.Sharipov) Markaz huzurida tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan attestatsiya komissiyalari tomonidan mazkur buyruqning 1-va 2-ilovalarida belgilangan tartibda nomzodlar bilan video-suhbatlar o'tkazilishini ta'minlasin.

9. Tashkiliy-kadrlar va inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (T.Xakimov) tibbiyot mutaxassislarini xorijda magistratura va klinik ordinaturada o'qitish asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlariga yuboriladigan xodimlar bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzilishini ta'minlasin.

10. Sog'liqni saqlash vaziri o'rinnbosari (F.Tashpulatov) mutaxassislarni Davlat budgeti mablag'lari hisobidan xorijda o'qitish, malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlash, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni respublikaga jalb qilish bo'yicha mablag'larni Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirish choralarini ko'rsin.

11. Mazkur buyruqning 1-ilovasida belgilangan qoidalar 2025/2026 o'quv yilidan boshlab xorijga yuboriladigan nomzodlar uchun tatbiq etiladi.

12. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Sog'liqni saqlash vazirining quyidagi buyruqlari o'z kuchuni yo'qotgan deb hisoblansin:

2024-yil 22-apreldagi "Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishini respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-son buyrug'i;

2024 yil 1 oktyabrdan boshlab 2024-yil 22-apreldagi "Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining bitiruvchilarini magistratura va klinik ordinatura ta'lif dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlarida o'qitish uchun nomzodlarni saralash chora-tadbirlari haqida"gi 130-son buyrug'i.

13. Mazkur buyruq bilan berilgan topshiriqlar bajarilishini nazorati vazirning birinchi o'rinnbosari v.b. D.Sultanovga yuklansin.

Vazir v.b.

A.Xudayarov



Sog'lijni saqlash vazirining
2024-yil 09 08 dagi
263 - son buyrug'iga
1-ilova

**Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining bitiruvchilarini magistratura
va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif
muassasalari va markazlarida o'qitish**

TARTIBI

1. Mazkur tartib tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining bitiruvchilarini magistratura va klinik ordinatura ta'lif dasturlari asosida xorijiy davlatlarining yetakchi oliy ta'lif muassasalari va markazlarida o'qitishga yuborish uchun qo'llaniladi.

2. Tanlov haqida Sog'lijni saqlash vazirligi Matbuot xizmati, Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'lijni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'lijni saqlash boshqarmalari, Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari va ularning filiallari tomonidan ijtimoiy tarmoq sahifalari, rasmiy veb-saytlari, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

3. Tanlovda tibbiyot oliy ta'lif muassasasining, shu jumladan, qo'shma ta'lif dasturlarining dunyoning top – 300 (yoki sohasi bo'yicha top – 100) reytingiga kirgan xorijiy oliy ta'lif muassasalariga magistraturaga yoki Fan-ta'lif va innovatsiyalar boshqarmasi (O'.Ismailov) ishlab chiqqan va tasdiqlangan yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlarining ro'yxati asosida klinik ordinaturaga o'qishga qabul qilinganligi haqida hujjatga ega bitiruvchilar ishtirok etishlari mumkin.

4. Klinik ordinatura o'quv dasturlari bo'yicha yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlarining ro'yxati hududlarda tor sohadagi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojdan shuningdek, oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq har yili tasdiqlanadigan tanlov yo'nalishlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

5. Tanlov nomzodlar bilan ular yozgan insho (essay) asosida mazkur tartibga ilovaga muvofiq mezonlar asosida baholanadigan hamda yozib olinadigan onlayn video-suhbat ko'rinishida o'tkaziladi.

6. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi huzurida tashkil etiladigan ihtisoslashtirilgan attestatsiya komissiyalari (keyingi o'rnlarda – Ishchi guruh) tomonidan nomzodlarning ro'yxati onlayn taqdim etilgan arizalar asosida shakllantirilib, suhbat rejulashtiriladi.

7. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar mazkur tartibning 3-bandi talablariga mos bo'lgan taqdirda zarur hujjatlarni elektron shaklini onlayn platforma orqali taqdim etadi.

8. Tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlar tanlov e'lon qilinganidan bir oy muddatda taqdim etiladi.

9. Tanlov ishchi guruh tomonidan belgilangan muddatda o'tkaziladi va bu haqida nomzodlar uch ish kuni oldin ogohlantiriladi.

10. Suhbatni o'tkazish uchun Ishchi guruh a'zolarining eng kamida 70 foiz qismi ishtirok etishi shart.

11. Yozib olingen suhbat videolari appellatsiya arizalarini ko'rib chiqish jarayonida ishlatalishi mumkin.

12. Tanlov yakuni bo'yicha to'plangan ballar qo'shib chiqiladi, eng yuqori ball olgan nomzodlar g'olib deb topiladi.

13. Tanlov yakuni bo'yicha bayonna maqсади rasmiylashtiriladi hamda g'olib deb topilgan nomzodlar ro'yxati Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi Kuzatuv kengashiga taqdim etiladi.

14. G'oliblar o'quv xarajatlari Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

15. Zarurat tug'ilganda g'oliblarning o'qishi xarajatlarini qoplab berish uchun "El-yurt umidi" jamg'armasiga talabnama kiritiladi.

16. Tashkiliy-kadrlar va inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi g'oliblar bilan vazirlik tomonidan belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi. Ushbu shartnomalarda magistratura va klinik ordinatura ta'lim dasturlari bo'yicha o'qib kelgandan so'ng 5 yil muddat mobaynida davlat tibbiyot muassasalarida uzlusiz ishlab berish majburiyati ko'rsatiladi.

17. Tuzilgan shartnomalarni kelgusida ro'yxatga olinishi va ijro etilishi uchun shartnomalar tuzilganidan uch ish kuni muddatida vazirlikka taqdim etadi.

18. Apellatsiya komissiyasi ish faoliyati Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 2023-yil 18-sentyabrdagi 477-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy Reglament talablari asosida amalga oshiriladi.

19. Mazkur Tartibda ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal qilinadi.

20. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini
xorijda malaka oshirish (stajirovka o'tash)
va qayta tayyorlashni tashkil etish tartibiga
ilova

**Nomzodlar tomonidan yozilgan insho (essay) asosida o'tkaziladigan suhbatni
BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Ko'rsatkichlar	Ball
1.	Malaka oshirish (stajirovka o'tash) yoki qayta tayyorlashga borish uchun tanlangan yo'naliш ustuvor yo'naliшning ro'yxatiga mosligi	0-3
2.	Malaka oshirish (stajirovka o'tash) yoki qayta tayyorlashga borish uchun tanlangan yo'naliшdagi dolzarb muammolar yoritilganligi	0-3
3.	O'rganilmoqchi bo'lган yangi diagnostika-davolash usuli va fan-texnika yutuqlari bo'yicha yetakchi nufuzli xorijiy muassasada (nomi bilan) o'qish maqsadi va rejasi aniq yoritilganligi	0-3
4.	Yangi diagnostika-davolash usuli va fan-texnika yutuqlarini o'rganish va amaliyatga tatbiq etish uchun malaka va ko'nikmalari yetarliligi	0-3
5.	O'rganilgan bilim va ko'nikmalarni amaliyatga tatbiq etish yo'llari yoritilganligi	0-3

Izoh: Suhbat jarayonida insho (essay)da keltirilgan ma'lumotlar o'rинli ekaniga baho beriladi. Umumiyligining yig'ish mumkin bo'lган ballar yig'indisi 15 ball. 11 va undan yuqori ball to'plagan nomzodlar "o'tdi" deb yakuniy xulosa qilinadi.

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil 09 08 dagi
263-son buyrug'iga
2-ilova

**Davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini xorijda malaka oshirish
(stajirovka o'tash) va qayta tayyorlashni tashkil etish**
TARTIBI

1. Ushbu Tartib Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining (keyingi o'rnlarda – buyurtmachilar) xodimlarini (keyingi o'rnlarda – nomzodlar) xorijda malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlashni tashkil etish, Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi (keyingi o'rnlarda – Jamg'arma) mablag'laridan foydalanish uchun nomzodlardan hujjatlarni qabul qilish, baholash, xorijda o'qish yakuni bo'yicha hisobot taqdim etish, ularning bilim va ko'nikmalarini amaliyotga joriy qilish tartibini belgilaydi.

2. Xodimlarni xorijda malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlash ta'lif dasturlari bo'yicha yuborish xizmat safariga tenglashtiriladi.

3. Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari (CPD-koordinator) sohasi bo'yicha kadrlarni xorijda malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlash dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlarida o'qitishga yuborish uchun hududlar kesimida ustuvor yo'naliishlarda o'rganilishi va amaliyotga tatbiq etilishi zarur bo'lgan yangi davolash-diagnostika uslublari va zamonaviy fan-texnika yutuqlari ro'yxatini tuzadi.

4. Bosh mutaxassislar va konsultantlar (CPD-koordinator) sohasi bo'yicha keyingi yil uchun ishlab chiqilgan ustuvor yo'naliishlar ro'yxatini (keyingi o'rnlarda – Ro'yxat) Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markaziga (keyingi o'rnlarda – ishchi organ) har yili 15-oktyabrga qadar taqdim etadi.

5. Ishchi organ taqdim etilgan Ro'yxatni onlayn platformaga 25-oktyabrga qadar joylaydi.

6. Nomzodlar sohalar hamda hududlar kesimida ustuvor yo'naliishlar bo'yicha tibtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 2023-yil 18-sentabrdagi 477-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy Reglamentning 2-ilovasiga muvofiq elektron shakldagi so'rovnomanini to'ldiradi.

So'rovnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- Talabgorning ish stajini, oliy va o'rta maxsus, professional ta'lif tashkilotlarida o'qiganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalari, tibbiy yoki farmatsevtik ma'lumoti (oliy, o'rta maxsus, internatura, klinik ordinatura, magistratura, ilmiy daraja, qayta tayyorlash) to'g'risidagi diplom (hujjat) va/yoki xorijiy ta'lif tashkilotida olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom yoxud oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat (O'zbekiston

Respublikasida tan olinganligi to'g'risidagi) ma'lumotlari, shuningdek, xodimning mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlari elektron hamkorlik yo'li bilan "Elektron hukumat"ning idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali olinadi ("Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali xodimning mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarini olish imkoniyati mavjud bo'limgan hollarda, talabgordan mazkur ma'lumotlarni so'rashga yo'l qo'yiladi);

- til bilish sertifikati (mavjud bo'lsa);
- malaka oshirish (stajirovka o'tash), qayta tayyorlashga o'qishga qabul qilishga tayyor xorijiy tibbiyat oliy ta'lif muassasasi yoki tibbiyat markazi taqdim etgan hujjat (rasmiy xat yoki boshqa hujjat);
- xorijda malaka oshirish (stajirovka o'tash), qayta tayyorlashga o'qishga borishdan maqsad, o'qish rejasi, vatanga qaytib kelgach olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etish rejalari aks etgan insho (essay);
- oxirgi 2 yil ichida Davlat byudjeti hisobidan xorijda malaka oshirmaganligi haqida nomzodning tilxati.

7. Nomzodlar taqdim etayotgan hujjatlarining haqqoniyligiga shaxsan javobgar hisoblanadi.

8. Malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlash dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlarida o'qitishga yuborish uchun yiliغا kamida ikki marta vazirlikning veb-saytida tanlov e'lon qilinadi.

9. Tanlov e'lon qilingandan so'ng hujjat topshirish uchun kamida bir oy muddat beriladi.

10. Mazkur tartibga muvofiq quyidagi tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi Kuzatuv kengashining qaroriga asosan jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi:

Sog'lijni saqlashni boshqarish organlari, shuningdek, vazirlik tizimidagi muassasalar va tashkilotlarning kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida vazirlik va uning tizimidagi muassasalarning xodimlari (nomzodlari) orasidan iqtidorli va malakali nomzodlarni tanlab olish bilan bog'liq tadbirlar;

sog'lijni saqlashni boshqarish organlari va Vazirlik tizimidagi davlat tibbiyat muassasalarining xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish bilan bog'liq jarayonlar.

11. Ishchi organ kelib tushgan arizalarni 5 ish kuni ichida ko'rib chiqish uchun attestatsiya komissiyasiga taqdim etadi.

12. Hujjatlarni saralashda nomzodning malaka oshirish (stajirovka o'tash) yoki qayta tayyorlashga borishga istak bildirgan yo'nalishining Ro'yxatga mos ekanligiga ahamiyat qaratiladi.

13. Hujjatlari talabga javob beradi deb topilgan nomzodlar tanlov g'olib deb topiladi.

14. Hujjatlari talabga javob beradi deb topilgan nomzodlar soni Jamg'arma moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, yuborishga rejalashtirilgan sondan ortib ketgan taqdirda, nomzodlar topshirgan insho (essay)lari asosida suhbat qilinadi.

15. Suhbat onlayn yozib olinadigan formatda olib boriladi va unda insho (essay) ilovadagi mezonlarga asosan baholanadi.

16. Tanlov natijalariga asosan nomzod to'plagan ballari bo'yicha "o'tdi" yoki "o'tmadi" deb yakuniy xulosa qilinadi.

17. Tanlov natijalariga asosan "o'tdi" yakuniy xulosasini olgan nomzodlar komissiya qarori bilan tanlov g'olib deb topiladi.

18. Tanlov natijalari mas'ul tashkilotlarning veb-saytida joylashtiriladi.

19. Tanlov g'oliblari bo'yicha xodimlarni xorijiy tibbiy ta'llim, ilmiy tashkilotlarga (markazlar, universitetlar va boshqalar) malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlashga yuborish rejasi attestatsiya komissiyasi yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanadi.

20. Yozib olingan suhbat videolari appellatsiya arizalarini ko'rib chiqish jarayonida ishlatilishi mumkin.

21. Malaka oshirish (stajirovka o'tash) va qayta tayyorlash yakuni bo'yicha mutaxassis hisobotni muassasa rahbari bilan kelishgan holda tasdiqlab hududiy bosh mutaxassislar va konsultantlari (CPD-koordinator) ga taqdim etadi.

22. Hisobotlar buyurtmachilarining kollegial organida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritiladi.

23. Tasdiqlangan hisobotlar va kollegial organ qarori nusxasi buyurtmachilar rasmiy yo'llanma xatiga ilova qilingan holda, qaror chiqqan kundan boshlab 10 ish kunida qog'oz va elektron shaklda Sog'lijni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari (CPD-koordinator)ga taqdim etiladi.

24. Hisobotlarni Sog'lijni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari (CPD-koordinator) qabul qilish jarayonida ular asoslovchi hujjatlar bilan birga taqdim etilgan taqdirda hisobotlar qabul qilindi deb belgilanadi.

25. Sog'lijni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari (CPD-koordinator) hisobotlarni o'rganish natijasi bo'yicha xulosalarini Tibbiy xizmat sifatini nazorat qilish boshqarmasiga taqdim etadi.

26. Tibbiy xizmat sifatini nazorat qilish boshqarmasi Sog'lijni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari taqdim etgan xulosa asosida

o‘z vertikali bo‘yicha hududlardagi holatni o‘rganib, xulosalarning haqiqatga to‘g‘ri ekanligi haqida yakuniy bayonnomma beradi.

27. Hisobot va ma‘lumotlar haqqoniyligi yuzasidan xodimlar, buyurtmachi tashkilot rahbarlari hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari (CPD-koordinator) mas‘ul hisoblanadi.

28. Jamg‘arma hisobidan malaka oshirish (stajirovka o‘tash) va qayta tayyorlashni tugatib kelgan xodimlarning shartnomalarni belgilangan tartibda rasmiylashtirishi va kelgusida ro‘yxatga olinishi hamda ijro etish uchun ko‘rsatilgan talablar va muddatlarga muvofiq Jamg‘arma Kuzatuv kengashiga taqdim etilishi lozim.

29. Ta’lim dasturi tugallanganidan so‘ng, nomzodlar shartnoma talablariga qat’iy amal qilgan holda diplom, sertifikat yoki boshqa hujjat nusxasini, shuningdek, ta’lim dasturi bo‘yicha foydalangan adabiyotlar va tarqatma materiallarning elektron shaklini tibbiyot xodimlari foydalanishi maqsadida Vazirlikning elektron kutubxonasiiga joylashtirishi uchun Sog‘liqni saqlash vazirligi Fan-ta’lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etadi.

30. Nomzodga mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi:

a) malaka oshirish ta’lim dasturi bo‘yicha – 3 (uch) yildan kam bo‘lmagan;

b) qayta tayyorlash ta’lim dasturi bo‘yicha – 5 (besh) yildan kam bo‘lmagan muddatda to‘liq bandlik asosida uzliksiz ishlab berish majburiyati yuklanadi.

31. Nomzodlar malaka oshirish (stajirovka o‘tash) va qayta tayyorlashni tugatib kelgan xodim amaliy, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari bo‘yicha, o‘z mutaxassisligi va qo‘lga kiritgan zamonaviy bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha o‘z ish joylarida hisobot beradilar.

32. Nomzodga o‘zlashtirgan zamonaviy yuqori texnologiyали diagnostika va davolash usullarini o‘z tashkilotida tatbiq etish borasida ish joyida tashkilot rahbari shart-sharoitlar yaratib beradi.

33. Nomzod vazirlik tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda malaka oshirish (stajirovka o‘tash) va qayta tayyorlash davrida to‘plangan tajriba, olgan bilim va ko‘nikmalari borasida o‘z fikr va mulohazalarini bayon etadi.

34. Nomzod uzsiz sabablarga ko‘ra xorijiy ta’lim, ilmiy yoki boshqa muassasalarning tahsil oluvchisi safidan chetlashtirilgan yoki Jamg‘arma ta’lim dasturlari tugagandan so‘ng u bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq davlat tibbiyot muassasalari yohud davlat ulushi mavjud bo‘lgan tashkilotlarda mehnat faoliyatini davom ettirishdan bosh tortgan taqdirda, Jamg‘arma tomonidan uni o‘qitishga sarflangan barcha xarajatlar tanlov g‘olib va uning moliyaviy kafillari (yuridik va jismoniy shaxslar (ota-onasi yoki qarindoshlari)) tomonidan birgalikda qoplab beriladi.

35. Apellatsiya komissiyasi ish faoliyati Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va ularga malaka toifalari berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash

to'g'risida" 2023-yil 18-sentabrdagi 477-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy Reglament talablari asosida amalga oshiriladi.

36. Jamg'armaning Kuzatuv kengashi buyurtmachilardan malaka oshirish (stajirovka o'tash), qayta tayyorlashga yuborish va yakuniy hisobotlar yuzasidan kiritilgan hujjatlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqlidir.

37. Mazkur Tartibda ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal qilinadi.

38. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining bitiruvchilarini
magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida
yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari
va markazlarida o'qitish tartibiga
Illova

**Nomzodlar tomonidan yozilgan insho (essay) asosida o'tkaziladigan suhbatni
BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Ko'rsatkichlar	Ball
1.	Tanlangan tor sohaga hududlarda ehtiyoj	0/1
2.	Tanlangan sohadagi dolzarb muammolar inshoda keng yoritilganligi	0-3
3.	Tanlangan tor soha bo'yicha yetakchi nufuzli xorijiy OTMlarda (nomi bilan) o'qish maqsadi aniq yoritilganligi (aynan shu OTM yoki markazni tanlashdan maqsad, tanlangan sohada erishgan yutuqlari, yetakchi taniqli mutaxassislar faoliyat yuritishi)	0-3
4.	Tanlangan tor soha bo'yicha yetakchi nufuzli xorijiy OTMlarda (nomi bilan) o'qish rejasi yoritilganligi (o'qish davomida qanday ilg'or davolash va diagnostika usullarini chuqurroq o'rganmoqchi)	0-3
5.	O'rganilgan bilim va ko'nikmalarni amaliyatga tatbiq etish yo'llari yoritilganligi	0-3
6.	O'qishni tamomlagach kelgusi faoliyatini qayerda davom ettirish istagi (vatanga qaytish yoki qaytmaslik)	0/3

Izoh: Suhbat jarayonida insho (essay)da keltirilgan ma'lumotlar o'rinali ekaniga baho beriladi. Umumiyligida yig'ish mumkin bo'lgan ballar yig'indisi 16 ball, shundan 14 va undan yuqori ball to'plagan nomzodlar yuqori ball to'plagan hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil 09 08 dagi
263-son buyrug'iga
3-ilova

**O'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada
tashkil etish bo'yicha xorijiy mutaxassislarni jalg etish
TARTIBI**

1. Ushbu Tartib Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining (keyingi o'rinnarda – buyurtmachilar) o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalg etish bo'yicha nomzodlarni saralash tanlovini tashkil etish, Jamg'arma mablag'laridan foydalanish uchun nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish hamda saralash tartibini belgilaydi.

2. O'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalg etish bo'yicha davlat tibbiyot tashkilotlari va tibbiyotning ustuvor yo'naliishlari ro'yxati sohada xorijiy mutaxassisiga ehtiyoj mavjud bo'lganda vazirlikning veb-saytida e'lon qilinadi.

3. Xorijiy mutaxassislarni taklif etish uchun davlat tibbiyot tashkiloti rahbarlari xorijiy mutaxassis ma'lumotnomasini (mutaxassisning ish joyi, akademik unvoni va lavozimi, Xirsh indeksi ko'rsatilgan holda) elektron shaklda vazirlik tomonidan belgilangan elektron pochta maxsus manziliga yuboradilar:

4. Davlat tibbiyot tashkiloti rahbarlari taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar hisoblanadi.

5. Saralash ilovada keltirilgan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Kuzatuv kengashi saralashdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar ro'yxati asosida o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalg etish bo'yicha reja tuzilib, tasdiqlanadi va moliyalashtirish uchun Jamg'armalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limiga (Direksiya) taqdim etadi.

7. Jamg'armaning Kuzatuv kengashi buyurtmachilardan o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalg etish yuzasidan kiritilgan hujjatlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqlidir.

8. Mazkur Tartibda ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal qilinadi.

9. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O'qitish, malaka oshirish va tajriba
almashishni respublikada tashkil etish
uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish
bo'yicha nomzodlarni saralash tartibiga
ilova

**Respublikaga yetakchi xorijiy tibbiyat hamda ilmiy muassasalardan malakali
mutaxassisni jalb etish bo'yicha mezonlar**

T/r	Ko'rsatkichlar	Ball
1.	Mutaxassisligi bo'yicha jamiyat, assotsiatsiya a'zosi	10
2.	Xirsh indeksi 4 dan kam emas	40
3.	PhD	10
4.	DSc	20
5.	Top 1000 lik OTMdai faoliyat yuritishi	20
Jami		100

Izohlar: * Nomzod ko'rsatkichlar bo'yicha kamida 60 ball to'plashi kerak.
** Sohada xorijiy mutaxassisiga ehtiyoj mavjud bo'lganda Jamg'arma Kuzatuv
kengashi qarori asosida taklif etiladi.